

# Qo'qon Xonligida Ba'zi Soliq Turlari (Buxoro Va Xiva Xonligidagi Soliq Turlariga Qiyosiy Taxlil)

**Islomov Jamoliddin Muzaffar o'g'li, Mirzaodilova Nigora Avazjon, Qayumova Feruza Inomjonovna**  
Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti O'zbekiston tarixi fakulteti o'qituvchisi, Tarix yo'nalishi II-  
bosqich talabalari qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali Qo'qon xonligidagi soliqlarning turlari ularning miqdori va soliqlar yukining dehqonlar gardaniga juda og'ir tushishi, soliq yig'ishdagi suiistemolliklar, Xudayorxon davridagi yangi soliqlarni joriy etilishi, Qo'qon xonligining soliq tizimi va boshqa O'rta Osiyo xonliklaridan farq qilishligini bilib olasiz.

**Kalit so'zlar:** soliq, majburiyat, zakot, xiroj, ushr, xossachi, beklik, tanobona, tagi joy, tarozi puli, tamaki puli, Xudoyorxon.

O'rta Osiyoda qadimdan paydo bo'lib, davlatchilikning yuqori pog'onasiga ko'tarilgan barcha davlatlar yosh O'zbekiston davlat qurilishining asosini tashkil qiladi. Boy tariximizni o'rganishdan asosiy maqsad, ularning davlatchilik siyosatini o'rganib, sinalgan tajribalarni yangi zamonga moslab tadbiq etishdir. Davlat qurilishining poydevorini moliya sohasidagi islohatlar tashkil etadi. Moliya sohasida davlatning daromadini ko'paytiruvchi soha bu - soliq sohasidir. Tarixdan ham malumki, soliqlar davlatlarning asosiy daromad manbai bo'lgan. Soliq sohasida islohatlar hukumдорлар [4:5-6-b] va aholi o'rtasidagi munosabatlarni yaqqol ko'rsatib beradi. Davlatchilik siyosatida soliq sohasi shunday o'ringa egaki, agar bu soha shartli tartiblar asosida shakllantirilsa,adolat mezonlariga, qonun-qoidalariga amal qilinib olib borilsa, albatta bu davlatning ravnaqi, kelgusi taraqiyoti ta'minlangan bo'ladi. Davlatchiligidan muhim o'rinn tutgan soliq siyosatining rivojlantirish uchun ham bu sohadagi izlanishlarni davom ettirish kerak. Chunki bu soha hozirgi kunda jamiyat hayotida muhim o'rinn egallaganligi bois, biz so'z yuritmoqchi bo'lgan mavzu o'z dolzarbligiga ega.

Xonliklardagi soliq tizimimni o'rganishda barcha sohalar qatori, bu yo'nalishning tarixiy ildizlarni chuqquroq bilish uchun ham tarixiy manbalarning o'rni beqiyos. Ushbu yo'nalishdagi manbalarni to'rtta guruhga ajratishimiz mumkin. Qo'qon xonligi soliq tizimiga oid manbalar to'liq emas ya'ni aynan shu mavzuga bag'ishlab mahlliyl muarrixlar ham, xonlikka tashrif buyurgan xorijiy sayohlar alohida manba yaratishmagan. Bu haqida Z.N.Xatomovaning "Qo'qon xonligida soliq tizimi" nomli disertatsiyasida ham fikrlar yuritiladi.[4:9-12-b]

Qo'qon xonligi soliq turlari haqida so'z yuritar ekanmiz O'rta Osiyodagi boshqa xonliklardan farq qilmagan, Xudoyorxon davriga kelganda esa xonlikda boshqa xonliklarda (Buxoro amirligi, Xiva xonligi) mavjud bo'limgan yangi soliq turlarini joriy qiladi. Dastlab biz O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Qo'qon va Buxoro xonliklaridagi ayrim soliq turlarining o'xshash va farqli jihatlariga to'xatmoqchimiz Xonlikda asosiy davlat xazinasini boyitadigan manba bu aholidan yig'iladigan soliqlar edi. A.L.Kuning ma'lumotlariga qaraganda Xonlikda rasmiy soliqlar quydagilardan iborat bo'lgan: natural xiroj yoki 1/10 soliq, zakot - tovardan olinadigan savdo solig'i va hayvonlar hisobidan olinadigan soliq, bozorda savdogarlardan olinadigan soliq turi, tarozi solig'i, daryordan o'tkazib qo'ygani uchun soliq, tuz boji va yana

maxsus soliqlar ham bo'lgan.**[3:125-126-b]** X.N.Bobobekov xonlikdagi soliqlarni ikki turga: xossachi va beklikka bo'lgan. Xossachi- daromad xon xazinasiga to'g'ridan to'g'ri tushgan. Beklik - yig'ilgan soliq beklik xazinasiga tushgan va beklik uning ma'lum bir qismini xon xazinasiga yuborilgan**[3:126-b]**. Xazinaga barcha soliqlar kelib tushgan. XIX-asrning bиринчи yarmida Qo'qon xonligining daromadi natura va puldan iborat edi. (Buxoro xonligida ham huddi shunday tartib joriy etilgan bo'lib Buxoro xonligida mahsulot ko'rinishidagi soliq xirmon ko'tarish payitiga to'g'ri kelgan). Ularning bir qismi viloyat xokimlari qo'lida saqlangan bo'lib ular bu mablag'lar xisobiga qo'shin taminotini o'z bo'yinlariga olishgan edi, qolgan qismi xon xazinasiga tushgan. Xudoyorxonning (1805-1875-yy.) so'ngi hukmronlik yillarda xon xazinasiga har yili 1,5 mln rublga teng soliq tushardi **[7: 5-8-b]**. Sholi, bug'doy, jo'xori va boshqa donli ekinlardan g'allaning 1/5 soliq sifatida olingan. Mevazor bog'lardan **[1: 37-b]**, uzumzor, sabzavot, paxta va boshqa o'simliklar ekiladigan yerlardan esa uning satxi maydoniga nisbatan soliq to'lanardi. Bunday yerlardan olinadigan soliq turi "tanobona" deb ataladi, shu bilan birga tanobona solig'i ekilgan narsalarni e'tiborga olgan xolda uning miqdori bilan belgilangan. Masalan: X.N.Bobobekov fikriga ko'ra terak va qayrog'och ekilgan bir tanob yerdan 50 tiyin, qovun, tarvuz, bodring, beda, tut, piyoz va bahorgi sabzi ekilgan bir tanob yerdan bir so'm, uzumzorlar va mevali daraxtlar ekilgan bir tanob yerdan ikki so'mdan soliq olingan **[8: 55-78- b]**. Shu o'rinda shuni takidlab o'tish joizki Buxoro xonligida ham Tanobona solig'i mavjud bo'lib u xonlikdagi boshqa soliqlar zakot va qo'sh puli ( Buxoro xonligida xirojning bir turi polizlarga bozorning yaqinligiga qarab olingan) qatorida faqat naqt pul kp'rinishida olingan. Hosilni o'lchashda va soliq miqdorini belgilashda yig'ib olishda suistemollik qilish hollari tez-tez bo'lib turadi. Bu esa aholi uchun og'ir musibat edi **[3: 127-b]**.

Xonlikda nafaqat qishloq axolisi balki shahar axolisi ham qishloq dehqonlaridan kam bo'limgan holda soliq to'lagan. Faqat shahar va qishloqlardan yig'iladigan soliqlar turi farqli bo'lgan. Shaharlardan olinadigan soliqlar undagi hovli uylar soniga, do'konlar va ayrim hunarmandlarning maxsulot turlariga nisbatan belgilab yig'ilgan. Xonlikda hayvon podasi egasidan ularni sotib olib ketayotganda zakot olingan. Ularning narxidan 1/40 qismini zakot uchun to'lashlari lozim edi. Buxoro xonligida esa hayvon podasidan olinadigan zakot miqdori turli yillarda turlicha bo'lgan. Masalan: 1904-yilga kelib Buxoro xonligida 5ta yuk tashuvchi tuya hisobidan 1ta qo'y, 40 bosh qo'y va echki podasidan 1ta qo'y yoki echki. Qo'y va echkilarning soni 100 tagachga bo'sa zakot miqdori o'zagarmagan. 101 boshdan 201 boshgacha bo'lsa 2 bosh, undan ham ko' bo'lsa har 100 boshdan bir boshdan qo'y yoki echki qo'shilib borgan. Oltin va kumushdan ham 40 tilladan 1 tilla soliq sifatida olingan. Shaharlarga biriktirilgan qirg'iz va qozoqlarning podasidan ham zakot olingan. Buning uchun ularning ovullariga zakotchi yuborilgan, podalardagi hayvonlar sanalib har 40 bosh hayvondan bittasi zakot uchun olingan. Agarda podasidagi hayvon 40 boshga yetmasa va aholining o'zidagi oltin va kumush 20 tilladan oshmasa zakot olinmas edi.

O'rta Osiyo xonliklarida, xususan, Qo'qon va Buxoro xonliklarida ham har bir savdogar o'z harvorlarini shahardan tashqariga chiqarishdan avval nechta tuya, qancha tovar va qayerga yuborilayotganligini zakotchiga habar qiladi. Zakotchi kelib tovarlarni yuzaki tuyalarni yechmasdan umumiy bahoni belgilab undan 2,5 % xisobida zakot miqdorini belgilar edi. Buxoro xonligida bundan farqli o'laroq bozorga kirish va chiqishda zakot to'lнagan. Bundan tashqari Qo'qon xonligida zakotchi patta yozib berish uchun o'zining foydasiga xar bir pud xisobidan bir yil uchun 1 tanga olar edi. Savdogar bu pattani olgandan so'ng bir yil davomida xonlik hududida ko'rsatilgan mablag'i miqdorida boshqa zakot to'lmasdan savdo qilishlari mumkin edi.

"Qo'qon tarixi" asrida keltirilishicha Qo'qon hokimiysi zakot tushumlarini hisobga olmas edi, barcha yig'ilgan mablag' zakotchida to'plangan. U esa o'z ixtiyori va insofiga qarab xon va bekka ma'lum qismini yuborib turgan. Zakotchi zimmasida aososan xarbiy qo'shin

taminoti turar edi. Xonlikda xar bir shahar alohida-alohida zakot to'lagan. Masalan : Toshkentda har yili 60-80 ming tilla zakot yig'ilgan [3: 130-b].

1875-yil 2-oktyabrdan maxsus topshirqlar bilan O'rta Osiyoga kelgan katta mansabdor A.L. Kun K. A. Kaufmanga yo'llagan malumotnomasida bunday deb yozadi: "Musulmon davlatlarining shariatida xiroj solig'i terilgan maxsulotning 1/5 qismini, tanob uchun 5-10 tanga, savdo tovarlaridan zakot, 1/40 hajmida hayvonlardan ham zakot olingan". [3:128-b]

Qo'qon xonligida dehqonchilik sohasidan olingan va davlat xazinasiga katta daromad keltirgan yirik soliqlardan biri xiroj bo'lgan. Buxoro xonligida ham huddi shunday xon xazinasini asosoiy boyituvchi saoliq turi xiroj bo'lgan. Z. Choriyev o'zining asarlaridagi ma'lumotlarida xiroj O'rta Osiyoda VII-asrda joriy etilgan bo'lib, u xosil miqdoridan emas, yer maydoniga qarab olingan deb ta'kidlaydi [5: 114-b]. Lekin Qo'qon tarixi bo'yicha yirik mutaxassislarning fikrlari bundan mustasno. Ya'ni ular xiroj soligini xosil miqdoridan belgilab olinganligini qayd etishadi. A. Juvanmardiyev xirojni muvozafa va muqosama turlariga bo'linishi, xiroji muvozafa ekinning turi va olinadigan xosilga qarab, xiroji muqosama olingan xosilning miqdori va yerga qarab belgilanishini aytadi [6: 16-b]. Bizning fikrimizcha ham xiroj soligi xosilning miqdoriga qarab olingan, chunki malumotlarning ko'p qismi aynan shu xulosaga kelishimizga yordam berdi.

Manbalarda go'za puli [9: 538-6] atamasi ham mavjud bo'lib, A. Troitskayaning ma'lumotlariga ko'ra Xudoyorxonning so'ngi boshqaruvida paxtadan naqd pul ko'rinishida olingan soliq turi edi.

O'rta Osiyo xonliklarida yuqorida ko'rsatib o'tilgan to'g'ri soliqlardan tashqari xon daromadiga yana bir qancha soliqlar ham qo'shilgan bular haqida keyingi maqolalarimizda to'xtalib o'tamiz.[3:132-b ]

Xonlikda soliq yig'uvchi amaldorlar Buxoro va Xiva xonlilari amaldorlariga o'xshash bo'lgan. Masalan, hokim, amin, oqsoqollar. Xonlikda soliq to'lashdan ozod bo'lgan ma'lum toifalar ham mavjud bo'lib ularga tabiyki xon va uning oila a'zolari, yaqinlari, xonlikning siyosiy hayotda yuqori mavqega ega bo'lgan diniy ulamolar, davlat xizmatidagi amaldor shaxslar kirgan.

Umumiyl olib hisoblaganda Xonlikning bir yillik daromadi 29 166 900 rublga teng bo'lgan. Ushbu mablag'larning hammasi xonning shaxsiy mulki xisoblangan va xon tomonidan sarf etilgan. Xazinasining asosiy qismi xon va uning oila azolari shaxsiy ehtiyojlari, kiyim-kechaklari, oziq -ovqatlari, viloyatlarga safarga chiqish, to'y va marosimlari uchun sarf etilgan bo'lsa, yana davlat boshqaruvidagi mansabdor shaxslarning maoshlari [2: 264-6] uchun, ularning to'y va marosimlari uchun alohida mablag'lar ajratilgan. Davlat mudofasi uchun, qo'shinlar ta'minoti uchun, horijiy davlatlar bilan aloqlarni mustahkamlash uchun, sug'orish inshoatlari, bozorlar, karvonsaroylar, hunarmandlar ustaxonlarini ta'mirlash uchun, madaniy ma'rifiy ishlari (maktab, madrsa, majid qurish va ularni tamirlash) uchun ham xazinadan ko'plab mablag'lar ajratilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Qo'qon xonligida, soliqlar turi va ularning miqdorining ko'pligi xonlik aholisiga juda katta yuk bo'lganligi, bu ham yetmaganidek soliq yig'ishda amaldorlar o'rtasida suistemoliklarga yo'l qo'yilganligi ham aholi uchun talofatga teng masala edi. Xonlikning soliq tizimni o'rgana turib Xonlikning iqtisodiy hayotiga doir alohida manba yaratilmaganligi bizni afuslantirdi. Yuqoridagi ma'lumotlar esa xonlikning siyosiy-madaniy hayotiga bag'ishlangan asarlar ichidan shu mavzuga mos bo'lgan holatlari o'rganildi. Yuqorida keltirilganidek, manbalarda xonlikdagi soliqlarning soni turlicha keltirilgan. Bu ma'lumotlarning ko'plari Rossiya bosqinidan keyin o'rtganilganligiga qaragada, ruslar aholining shevasida boshqacha aytildigan va rasmiy hujjatlarda aytigan soliqlarni boshqa-boshqa soliqlar deb o'yagan bo'lishi mumkin.

Izlanishlarimiz davomida ushbu mavzuni yanada kengroq va to'laroq o'rganish kerak degan

xulosaga keldik. Chunki shunday mavzularning keng tartibda chuqur o'rganilishi hozirgi yangi davlatchilik soliq siyosatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, 2019 -yil 26-sentyabrdagi PF-5837-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomilashtirishi chora tadbirlari to'g'rishida"gi farmonga tarixchilar tomonidan munosib javob bol'dardi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Juvonmardiye. XVI-XIX asrlarda Farg'onada yer-suvga doir masalalar. –T.: Fan, 1965. – B 182.
2. N. Rustamova. XVIII-XIX asrlarda Qo'qon xonligida ijtimoiy iqtisodiy hayot. – J.: 2011. –B 65.
3. X. N. Bobobekov. Qo'qon tarixi. T.: Fan, 1996. – B. 239.
4. Z. N. Xatamova . Qo'qon xonligida soliq tizmi. F.: 2022. – B 53.
5. Z. Choriyev. Tarix atamalarining qisaqacha izohli lug'ati. – T.: Sharq, 1999. – 114-b.
6. Sh. Vohidov. Qo'qon xonligi tarixi ( xonlik tarixi- manbalarda ) T.: Yangi asr avlod, 2014. – B 1491.
7. А. Л. Кун. Очерки Кокандского хонства. СПБ., 1876. 69-72-b.
8. Н. Н Патусов О податях и повинностях существовавших в бывшем и Кокандском хонстве в последние годы правления Худаярхана. Ст. Туркестанские ведомости, 1876. - 87- 93- b.
9. Каталог архива кокандских ханов XIX века около 5000 документов. – М. Наука, 1968. – 582 – с.